

## TURG'UN VA ERKIN O'XSHATISHLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

**Xudayarova Solihaposhsho**

**Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU,  
Lingvistika mutaxassisligi 2-bosqich magistranti  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7777796>**

**Annotatsiya:** O'zbek tili o'xshatishlarga boy tildir. Tilshunosligimizga o'xshatishlarning ikki turi farqlanadi. Bular turg'un va erkin o'xshatishlardir. Ushbu maqolada tilimizdagi turg'un va erkin o'xshatishlar o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** o'xshatish, turg'un, erkin, lingvokulturologiya, lingvomadaniyatshunoslik.

Inson yaralibdiki, har bir narsa, hodisa, holatni o'rganishga intilib yashaydi. Qadimdan insonlar biror voqea, hodisa nomini izohlash uchun turli so'zlardan, iboralardan, qiyoslardan foydalanishgan. Ana shu tariqa nutqimizda o'xshatishlar vujudga kelgan. Biz uchun notanish bo'lgan holatni, yoki qaysidir vaziyatni boshqa bировga tushuntirish uchun hamisha nimagadir qiyoslaymiz, o'xshatamiz. Shu tahlit so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida aloqa vujudga keladi. Dunyoni bilishning eng qadimiy usuli sifatida e'tirof etilgan o'xshatishlar, nutqimizning ajralmas bir bo'lagidir. O'xshatishlarda muayyan xalqning tafakkur tarzi, urf-odati, madaniyati, so'z boyligi o'z aksini topadi. Har bir tilning, har bir davrning o'ziga xos o'xshatishlari mavjud bo'lib, ularni qiyoslash orqali chuqurroq o'rganishimiz mumkin.

O'xshatishlar borasida izlanishlar olib bogan olimlar e'tirofiga ko'ra, o'xshatishlar lisoniy boylikdir. Tilning bor go'zalligi adabiyotda o'z ifodasini topadi, shubhasizki, shoir-yozuvchilar o'z estetik idealini ifodalashda hamisha o'xshatish konstruksiyali qurilmalardan keng foydalanishadi. Bir shoir o'z tilidan, uning go'zalligidan faxrlanib uni qayroqqa qiyoslagandi. Ma'lumki, qayroq pichoqni o'tkirlash vazifasini bajaradi. Xuddi shu kabi o'xshatishlar, shoir ta'riflagandek, nutqda qayroq vazifasini bajaradi, ya'ni uni sayqallaydi, o'tkirlaydi.

Tilshunoslikda odatda qiyosning ikki turi farqlanadi, bunda qiyoslashning maqsadidan kelib chiqiladi. Agar ikki predmet yoki tushuncha ular o'rtasidagi farqni ko'rsatish maqsadida qiyoslangan bo'lsa, sof qiyosiy konstruksiya shakllanadi (masalan, yer toshdan qattiq), qiyoslash o'xshatish maqsadini ko'zda tutganda esa o'xshatish konstruksiyasi shakllanadi (masalan, yer toshday qattiq). Aytish joizki, sof qiyosga qaraganda o'xshatishlar nutqda sezilarli darajada katta badiiiy-uslubiy va lingvopoetik imkoniyatlarga ega<sup>1</sup>.

O'xshatish ikki narsa yoki voqea-hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, konkretroq, bo'rttiribroq ko'rsatib berishdir<sup>2</sup>.

Ikki yoki undan ortiq predmet yoki tushunchani o'xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyoslash, taqqoslash tashqi dunyoni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri sifatida inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladi. Bu behad muhim mantiqiy kategoriya, tabiiyki, tilda ham o'z aksini topadi<sup>3</sup>.

O'xshatishni yuzaga keltiruvchi grammatik vositalar turlicha:

1. Affikslar: -day(-dek), -simon, -ona, -omuz, -namo, -larcha, -chasiga, -dan.

<sup>1</sup> Mahmudov N. O'xshatishlarning til va nutqdagi o'rni /Til tilsimi tadqiqi. –Toshkent: Mumtoz so'z, 2017. – B. 160-161.

<sup>2</sup> Shomaqsudov A., Rasulov I., ... O'zbek tili stilistikasi. - T.: O'qituvchi, 1983. – B.229.

<sup>3</sup> Махмудов Н. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: Дисс. ...док-ра филол.наук. –Ташкент, 1984. -Б 259.

2. Soʻzlar vositasida, sifat (oʻxshash, teng), koʻmakchi (kabi, singari, qadar), bogʻlovchi (goʻyo, goʻyoki), olmosh (oʻzi), ravish (aynan).

3. Izohlovchi izohlanmish munosabatida.

Professor, tilshunos olim N. Mahmudov oʻzbek tilidagi oʻxshatishlarni toʻrt unsurga ajratadi va ularni oʻxshatish subyekti, oʻxshatish etaloni, oʻxshatish asosi va oʻxshatishning shakli koʻrsatkichi deb nomlaydi. "...oʻxshatishlar oʻziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik boʻladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, taʼsirchanligini taʼminlashga xizmat qiladi. Oʻxshatishlarning ikki turi, yaʼni:

1) *individual-muallif oʻxshatishlari yoki erkin oʻxshatishlar va*

2) *umumxalq yoki turgʻun (doimiy) oʻxshatishlar farqlanadi*"<sup>4</sup>.

Badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmoq nuqtayi nazaridan erkin oʻxshatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida oʻrin tutadi. Yozuvchi oʻzining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda xilma-xil original oʻxshatishlar yaratadi, bu oʻxshatishlar kutilmaganligi, ohorliligi bilan oʻquvchini rom etadi, muayyan ruhiy yoki jismoniy holat, xususiyat, predmetlarni oʻquvchi koʻz oʻngida yaqqol gavdalandiradi. Masalan: "*Soʻfining tani shu top-da Arabiston togʻlarining saratondagi toshlariday qizib yonardi*" (Choʻlpon. Kecha va kunduz). Bu gapdagi oʻxshatish konstruksiyasi erkin oʻxshatish boʻlib, u Eshonga ishonib, rasvo boʻlgan, haj ilinjida kun oʻtkazgan Razzoq soʻfining ruhiy holatini favqulodda aniqlik bilan ifodalash maqsadida Choʻlpon tomonidan yaratilgan<sup>5</sup>.

"Miryoqub ikki kishining pichirlashib gaplashganini eshitdi, *yuragi objuvoz likopiday ura boshladi*" (Choʻlpon, "*Kecha va kunduz*" romani) gapidagi *objuvoz likopiday* oʻxshatishi – yozuvchining oʻz ijodi mahsuli boʻlib, erkin oʻxshatish hisoblanadi. "*Maydalab oʻrilgan sochlardek egatlarga taralgan suvlar – nay koʻksidan oqayotgan ohanglar kabi sirli-sirli jildiraydilar*" (Ismoil Toʻlak).

Ijodkor tomonidan qayta ishlangan, original oʻxshatishda emotsional-ekspressivlik va obrazlilik yaqqol gavdalanib turadi. Ular badiiy asarning barcha komponentlari: portret, ruhiy kechinma, nutqiy tavsif, peyzaj, xarakterlar tasvirida qoʻllanadi va badiiy asar yuzaga kelishiga xizmat qiladi<sup>6</sup>.

Har bir ijodkor oʻz asarida oʻxshatishning anʼanaviy vositalaridan foydalangan holda oʻziga xos, yangi oʻxshatish namunalarini yaratishi mumkin. Masalan: Hamid Olimjon oʻxshatishni oʻzgacha tarzda namoyon etadi: "Oy deganda yuzi bor", yaʼni anʼanaviy vosita –dek, original shakl "deganda" bilan almashingan. Oʻxshatishning originalligi oʻxshatish vositalariga hamda oʻxshatish etaloniga ham bogʻliqdir. "Har qanday oʻxshatishning lingvopoetik asosini oʻxshatish etaloni tashkil etadi. Oʻxshatishning originalligi, oʻxshatish etalonining originalligiga koʻra yuzaga keladi"<sup>7</sup>.

Kutilmagan oʻxshatish etalonining tanlanishi esa ijodkorning mahoratidan, ziyrak va sinchkovligidan darak beradi.

<sup>4</sup>Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Маънавият, 2013. –Б. 5.

<sup>5</sup> Oʻxshatishlarning til va nutqdagi oʻrni /Til tilsimi tadqiqi. –Toshkent: Mumtoz soʻz, 2017. – B. 161.

<sup>6</sup> Mukarramov M. Oʻzbek tilida oʻxshatishlar. - T.: Fan, 1976, B.27.

<sup>7</sup> Yoʻldoshev M. Choʻlpon badiiy til maʼorati. Fil. fanlari nomz.... dis. avtoref. - T., 2000. B.16.

*Qozoq osmonida bulutlar semiz,*

*Bo'rdoqi qo'ylarday yurishar kezib<sup>8</sup>. (Usmon Azim)*

Bu parchada shoir qozoq xalqining turmush tarzi, ko'proq shug'ullanuvchi mashg'ulotidan kelib chiqib, shu xalqqa xos milliy o'xshatish qo'llagan, ya'ni bulutlar bo'rdoqi qo'ylarga qiyoslanmoqda. O'xshatish vositasi -day, belgisi semizlik, momiqlik. Bunda shoir bulutlarni momiq yungli, semirgan qo'ylarga o'xshatish orqali jonli tasvir yaratgan.

*Voy-bo'y!... Osmon bunchalar tiniq!*

*Sofligiga ne bo'lar qiyos?*

*O'ylab ketdi, o'yladi... qiziq,*

*Qiz ko'ziga o'xsharkan bir oz<sup>9</sup> (Usmon Azim)*

Bu bandlarni o'qigan kitobxon bolalikni, tiniq osmonni ko'z oldiga keltirishi tabiiy. Qalbida endigina muhabbat uyg'onayotgan o'spirinning ko'ziga har bir narsada tanish chehraning aksi namoyon bo'ladi. Shoir lirik qahramonning ichki ruhiyatini, qalb tug'yonini tasvirlashda ana shunday o'xshatishdan foydalanadi, ya'ni bola osmon tiniqligini, suyaklisi ko'zlarining beg'ubor, musaffoligiga o'xshat-moqda. Bu o'xshatish esa, shoirning lirik qahramonga munosabatini ifodalash bilan birga, she'rga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlagan.

*Bilaman, bir uyda - oppoq to'shakda.*

*Nurday pok vujudin choyshabga ko'mib,*

*Bir juvon uxlaydi xudoday yakka,*

*Balki men haqida oydin tush ko'rib<sup>10</sup> (Usmon Azim).*

Shoir ma'suma, pok ayolni tasvir etishda yorqin ranglardan foydalanadi, uni oqlik, oydinlik, nur ichida ko'radi va shunday pok, muqaddas so'zlar bilan ta'riflaydi. Shoirning ayol vujudini nurday pok, o'zini xudoday yakka-yolg'iz tasvirlashidan ayolning farishtadek ekanligi, shuningdek, yolg'izligi to'g'risida tasavvur hosil bo'ladi. Yo'qsa, u xudoga qiyoslanmagan bo'lar edi. Ayol ma'lum ma'noda lirik qahramon e'tiqod qo'ygan inson ham. E'tiqod esa, albatta, xudo bilan bog'liqdir. Lekin bunda ayol-xudo emas, uning yolg'izligi (holat) xudoga mengzalmoqda. Erkin o'xshatishlar har bir muallifning o'ziga xos, hech kimnikiga o'xshamagan original o'xshatishlari bo'lib, u yozuvchi yoki shoirning mahoratini belgilaydi. Ijodkorning ijodiy topilmasi bo'lmish erkin o'xshatishlar badiiy so'z jilosini yanada oshiradi. So'z san'atkorlari o'zini hayratga solgan voqelikni, yoxud o'zida ma'lum darajada hissiyot paydo qilgan narsa, hodisalarni atay biror shunday obyektga o'xshatib ta'sirchan nutq yaratadi.

Xalq og'zaki ijodida o'xshatishlar muhim ahamiyat kasb etadi "...baxshi yoki ertakchi ham asarga o'z individual o'xshatish, qiyoslashlarini kiritishi mumkin. Ammo bu ham an'anaga, epik ijod qonuniyatiga mos kelmasa, asar sujetiga singishmaydi, uning "yotligini" xalq darrov anglab oladi. O'zida xalqning an'ana, udum, marosim, fikr tarzini ifoda etgan detalgina xalqona obrazning ma'nosini ochishi, kengaytirishi mumkin"<sup>11</sup>.

Turg'un o'xshatishlarning mohiyati shundan iboratki, ularda o'xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo'ladi, bunday o'xshatishlar, garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo'llangan bo'lsa-da, vaqtlar o'tishi bilan til jamoasida urfga kirib, doimiy ifodalar

<sup>8</sup> Usmon Azim. Saylanma. - T.: SHarq, 1995. –B.101.

<sup>9</sup> O'sha kitob. – B 50.

<sup>10</sup> Usmon Azim. Saylanma. - T.: SHarq, 1995. –B.114.

<sup>11</sup> Eshonqulov J. Folklor: obraz va talqin. – Qarshi: Nasaf, 1999. –B. 70.

sifatida turg'unlashgan, umumxalq tili leksikonidan joy olib ulgurgan bo'ladi. Bunday o'xshatishlar xuddi tildagi tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiriladi<sup>12</sup>.

Masalan, Uning bu xislati ham hammaga *otning qashqasiday* ma'lum. (*Cho'lpon*) Bolalari qo'rqanlaridan *baqadek qotib qolishdi*. (*M. Nizanov*) gaplaridagi o'xshatishlar turg'un o'xshatishlardir. Turg'un o'xshatishlar ham nutqning ifodaliligini ta'minlashda alohida o'rin tutadi.

Tilshunos olimlarimizning aksariyati turg'un o'xshatishlarni idiomalarga yaqin turishini yoki idioma maqomida bo'lishini, kishilar nutqida ko'p vaqtlar davomida faol qo'llanilganligi sababli turg'unlashib, mustahkamlanib qolishini, o'xshatish asosidagi obrazning o'zi bog'liq bo'lgan so'z bilan yaxlitlanib, qat'iy bog'lanib qolishini ta'kidlaydi.

An'anaviy o'xshatishlar umummilliy madaniyatga xos bo'lib, barcha uchun tushunarli, tanish bo'lgan o'xshatishlardir. "Bunday o'xshatishlar o'zining jozibadorligi va kutilmaganligi bilan o'xshatish etaloni – poetik ramz darajasiga ko'tarilgan<sup>13</sup>".

Turg'un o'xshatishlar tilda avvaldan mavjud bo'ladi va nutqqa tayyor holda olib kiriladi. Dastavval erkin ya'ni individual tarzda vujudga kelgan o'xshatishlar yillar davomida keng iste'molda bo'lganligi bois turg'unlashib qoladi. Shu sabab o'xshatishlar tilshunosligimizda komprativ iboralar deb ham yuritiladi.

Umuman, o'xshatishlar lingvokulturologiyaga oid adabiyotlarda metafora, metonimiya, maqol va iboralar kabi tilning lingvomadaniy boyligi sifatida e'tirof etiladi. Bu kabi madaniy birliklar o'zida biror etnosga xos mentallikni, shuningdek, real voqelikni lison vositasida ifodalash darajasini ko'rsatuvchi dalil hamdir. Ular o'zida xalqning ijtimoiy, ma'naviy jihatdan rivojlanishini ham ko'rsatadi.

O'xshatishlar o'zbek tilida so'zlashuvchi til sohiblarining ijodiy tafakkuri, fikrlash tarzi va milliy mentalitetining o'ziga xosligini, shuningdek, tilning yaratuvchanlik imkoniyatini ko'rsatuvchi lingvomadaniy birlik sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, o'xshatishlar nafaqat so'zlar, so'z birikmalari yoki gaplar, balki matnlar orqali ham voqe bo'ladi. O'zbek tilidagi turg'un o'xshatishlar xalqimizga xos bo'lgan o'ziga xos fe'l-atvor, madaniyat, atrof-muhit, insonlarga bo'lgan subyektiv munosabatini ifodalaydi. Turg'un o'xshatishlar o'zbekning o'zligini, xalqona, milliy qadriyatlarini o'zida namoyon etuvchi til birliklaridir.

Har bir xalqning ana shunday birliklari mavjud bo'lib, u tilning birlamchi milliy xususiyatlaridan biridir. Rus tilshunosi V.M.Ogoltsev rus tilidagi turg'un o'xshatishlarning lug'atini yaratgan bo'lib, uning fikricha, turg'un o'xshatishlar erkin o'xshatishlar kabi nutq hodisasi emas, balki til sistemasining tayyor holda qo'llaniluvchi birliklaridir, bu birliklar rus frazeologiyasining alohida komprativ qatlamini tarkib toptiradi va ularning aksariyati ko'p ma'nolilik, sinonimlik, antonimlik xususiyatiga egadir<sup>14</sup>.

Turg'un o'xshatishlar o'zbek tilining tamomila o'ziga xos boyligi, xalq milliy-madaniy tasavvuroti va an'alarining betakror ko'zgusi, bejirim va ta'sirli nutq imkoniyatlariga kuch beradigan tuganmas manba, avlodlar o'rtasidagi obrazlar vorisliyigini ta'minlashga xizmat

<sup>12</sup> O'xshatishlarning til va nutqdagi o'rni /Til tilsimi tadqiqi. –Toshkent: Mumtoz so'z, 2017. – B. 162.

<sup>13</sup> Жуманазарова Г.У. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси: ДД. – Тошкент, 2017. – Б.22.

<sup>14</sup> Огольцев В.М. Словарь устойчивых сравнений русского языка (синонимо- антонимический). - М.: Русские словари. АСТ. Астрель, 2001. - С.5.

kiladigan goyat muxim vosita sifatida juda katta etnopsixologik, lingvokulturologik va lingvopoetik qimmatga ega<sup>15</sup>.

Ta'kidlanganidek, lingvokulturologiya nuqtai nazaridan, ayniqsa, turg'un o'xshatishlar, ya'ni komparativ iboralar alohida diqqatga sazovordir. Boisi "turg'un o'xshatishlar milliy ong jumbog'ini yechishga imkon beradigan yorqin obrazli vositalardan biri hisoblanadi", "dunyoni o'ziga xos, milliy tarzda ko'rish o'xshatish semantikasida aks etadi"<sup>16</sup>

N.Mahmudov, D.Xudoyberganova tomonidan tuzilgan "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati"<sup>17</sup>da o'zbek tilidagi 500 dan ortiq turg'un o'xshatishlar jamlangan bo'lib, bu tadqiqot til taraqqiyoti uchun muhim hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mukinki o'xshatishlar har bir xalq tili, madaniyati, ma'naviyatining ifodachisidir. Erkin o'xshatishlar ma'lum ijodkor tomonidan yaratiladi, davrlar sinovidan o'tib, xalq iste'molida an'anaga aylana borishi natijasida turg'unlashib boradi. Turg'un o'xshatishlar xuddi iboralar kabi nutqqa tayyor holda olib kiriladi. Ular xalqning urf-odatlarini, an'ana, milliy mentalitet, milliy qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Xalqning dunyoni his etishi, anglashi, tasavvur etishidagi o'ziga xosliklar o'xshatishlarda o'z ifodasini topadi.

### References:

1. Mahmudov N. O'xshatishlarning til va nutqdagi o'рни /Til tilsimi tadqiqi. –Toshkent: Mumtoz so'z, 2017.
2. Shomaqsudov A., Rasulov I., O'zbek tili stilistikasi. – T.: O'qituvchi, 1983.
3. Махмудов Н. Семантико-синтактическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: Дисс.док-ра филол. наук. –Ташкент, 1984.
4. Mukarramov M. O'zbek tilida o'xshatishlar. – T.: Fan, 1976.
5. Yo'ldoshev M. Cho'lpon badiiy til ma'orati. Fil. fanlari nomz. dis. avtoref. – T., 2000.
6. Usmon Azim. Saylanma. – T.: SHarq, 1995.
7. Eshonqulov J. Folklor: obraz va talqin. – Qarshi: Nasaf, 1999.
8. Жуманазарова Г.У. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопoeтикаси: ДД. – Тошкент, 2017.
9. D.Xudoyberganova. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013.
10. В. Маслова. Лингвокультуроология. – М., «Академия», 2001.
11. Махмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013.
12. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. –Toshkent, 2019.
13. Огольцев В.М. Словарь устойчивых сравнений русского языка (синонимо-антонимический). - М.: Русские словари. АСТ. Астрель, 2001.
14. В. Маслова. Лингвокультуроология. - М., «Академия», 2001, 133-134-б.

<sup>15</sup> Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lugati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013. – 6 b

<sup>16</sup> В. Маслова. Лингвокультуроология. - М., «Академия», 2001, 133-134-б.

<sup>17</sup> Махмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. –Toshkent, 2019.